



balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy salohiyatini barqaror shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, mazkur yondashuv ta’lim tizimida innovatsion va ilg‘or amaliyot sifatida qaraladi, pedagoglar uchun metodik qo‘llanma vazifasini bajaradi va o‘quv jarayonini optimallashtirishda asosiy vosita hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini birlashtirgan integratsion dars modellari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida shaxsni kompleks rivojlantirish, sog‘lom va ijtimoiy faol avlodni shakllantirish hamda pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan integratsion metodik yondashuvlar milliy ta’lim tizimiga moslashtirilishi pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik madaniyat va sog‘lom turmush tarzini uyg‘unlashtirgan integratsion dars modellari ta’lim jarayoniga kiritish – bu zamonaviy pedagogik jarayonni sifatli, samarali va yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy hamda jismoniy rivojlanishini kompleks ta’minlaydigan asosiy vosita ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Shu asosda, mazkur yondashuv pedagogik amaliyotda keng tatbiq etilishi va pedagoglarning metodik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Odinayev T. T. BO‘LAJAK TIBBIYOT HAMSHIRALARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. TMA Conference. – C. 230-234.
2. Shohbozbek, E. (2025). PEDAGOGIK METOTOLOGIYA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA MAKTAGACHA TA’LIMNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI. Global Science Review, 4(5), 774-782.
3. Matnazarovna J. O., Beknazarovna S. S. TALABALARDA RAQAMLI MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI //Modern education and development. – 2025. – T. 27. – №. 2. – C. 140-150.
4. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). THE ROLE OF PRESCHOOL EDUCATION IN SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN UZBEKISTAN. Global Science Review, 3(2), 246-253.
5. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz, “Surxon-nashr” nashr-matbaa markazi nashriyoti. – 2022. – 2022.
6. Ergashbayev, S. (2025). PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE INTEGRATION OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH’S SPIRITUAL OUTLOOK. SHOKH LIBRARY, 1(10).
7. Sayfullaeva R., G‘aybullayeva N. SALOMATLIK KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI //Farg‘ona davlat universiteti. – 2023. – №. 1. – C. 217-217.
8. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). FORMING THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUTH IN PRE-SCHOOL EDUCATION IN OUR REPUBLIC. Global Science Review, 4(5), 221-228.
9. Valixanov S. ZAMONAVIY JISMONIY TABIYA O ‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI //University Research Base. – 2024. – C. 537-540.
10. Sh, E. (2025). Developing the spiritual worldview of young people through the continuous education system in Uzbekistan. Ob‘edinyaya studentov: mejdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mejdu distsiplinami, 1(1), 314-316.

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA METAFORA VA FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xaydarova Feruza Murodkosimovna

Jizzax politexnika instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimovning ijodi haqida, asarlarida tilining asosiy vazifalaridan biri — obrazlilik va ta’sirchanlikni ta’minlanishi, O‘tkir Hoshimov asarlarida bu vositalar xalqona ruhni, milliy dunyoqarashni, qahramonlarning xarakterini va asarlarning umumiy badiiy-estetik qimmatini ochib berishda muhim rol o‘ynagani haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mentalitet, terminologiya, urf-odatlar va milliy ruhiyat, tushuncha, qadriyatlar.



SEMANTIC-PRAGMATIC PROPERTIES OF METAPHORS AND PHRASEOLOGISMS IN THE WORKS OF UTKIR HOSHIMOV

Khaydarova Feruza Murodkosimovna
Jizzakh Polytechnic Institute

Annotation: This article presents ideas about the work of one of the major representatives of Uzbek literature, Otkir Hoshimov, about one of the main tasks of his language in his works - providing imagery and expressiveness, and about the important role that these means play in revealing the national spirit, national worldview, character of heroes and the general artistic and aesthetic value of the works.

Keywords: mentality, terminology, traditions and national spirit, concept, values.

СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МЕТАФОР И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УТКИРА ХОШИМОВА

Хайдарова Феруза Муродкосимовна
Джизакский политехнический институт

Аннотация: В статье представлены размышления о творчестве одного из крупнейших представителей узбекской литературы Откира Хошимова, об одной из главных задач языка в его произведениях – образности и выразительности, а также о важной роли этих средств в раскрытии национального духа, национального мировоззрения, характеров героев и общей художественно-эстетической ценности произведений.

Ключевые слова: менталитет, терминология, традиции и национальный дух, концепт, ценности.

Badiiy asar tilining asosiy vazifalaridan biri — obrazlilik va ta’sirchanlikni ta’minlashdir. Metaforalar va frazeologizmlar esa shu jarayonning eng muhim vositalaridan sanaladi. O’tkir Hoshimov asarlarida bu vositalar xalqona ruhni, milliy dunyoqarashni, qahramonlarning xarakterini va asarlarning umumiy badiiy-estetik qimmatini ochib berishda muhim rol o’ynaydi.

1. Metaforaning semantik funksiyasi. Metafora — bir predmet yoki hodisaning boshqa predmet yoki hodisaga o’xshatib ifodalanishi. Hoshimov ijodida metaforalar asosan tabiat tasviri, ruhiy kechinmalar va hayotiy falsafani berishda ishlatiladi. Misollar: *“Ko’ngli muzlab ketdi” — bu yerda “muzlash” fizik hodisa sifatida emas, balki ruhiy sovuqlik va umidsizlikning metaforik ifodasidir. “Umid chirog’i so’ndi” — “chiroq” so’zi metafora sifatida inson qalbidagi umid ramzi sifatida qo’llanadi.*

“Dunyo eshiklari yopildi” — bu jumla hayotiy imkoniyatlarning tugashini obrazli ifodalaydi.

Metaforalarning bunday qo’llanishi yozuvchi tilining obrazlilikini oshirib, o’quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi.

2. Pragmatik ta’sir. Metaforalar kitobxonga emotsional va estetik ta’sir ko’rsatadi. Ular matnni yanada badiiy qiladi, qahramonlarning ruhiy holatini nozik tarzda yoritadi va o’quvchini voqeaga ruhiy jihatdan jalb etadi. Hoshimov metaforalar orqali o’z o’quvchisi bilan dialog o’rnatadi va uni o’z asarlariga ma’naviy hamroh etadi.

Frazeologizmlarning xalqona ruhi. Frazeologizmlar — bu tilda mustahkamlangan, ko’p hollarda ko’chma ma’noda ishlatiladigan iboralaridir. Hoshimov asarlarida ular xalqona ruh va milliy mentalitetni ifodalashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Misollar:

“Ko’ngli tog’ddek ko’tarildi” — quvonch hissi xalqona ibora orqali beriladi.

“Ko’ziga uyqu kelmadi” — qahramonning ruhiy iztirobi an’anaviy frazeologik birlik bilan tasvirlanadi.

“Joni achidi” — rahm-shafqat va insoniy tuyg’ularning xalqona ifodasi.

Bunday iboralar yozuvchi uslubida o’zbek xalq maqollari va hikmatlariga yaqin ruhni yaratadi, asarni kitobxonga yanada yaqinlashtiradi.

4. Frazeologik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari

Frazeologizmlar O’tkir Hoshimov asarlarida quyidagi vazifalarni bajaradi:



1. Obrazlilikni oshirish: Qahramonlarning ruhiy holati va voqealar dinamikasi frazeologik birliklar orqali jonlanadi.

2. Milliy madaniyatni aks ettirish: O‘zbek xalqining qadriyatlari va turmush tarzi frazeologizmlar orqali ifodalanadi.

3. Nutqni tabiiylashtirish: Qahramonlarning suhbatlari oddiy xalq tiliga yaqinlashadi, ularning xarakteri aniqroq ko‘rinadi.

4. Pragmatik ta’sir: Iboralar o‘quvchida emotsional rezonans uyg‘otadi, asar mazmunini chuqurlashtiradi.

5. Metafora va frazeologizmlarning o‘zaro aloqasi. Ko‘p hollarda frazeologik birliklar metaforik ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, “ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi” iborasida metafora (tog‘dek) va frazeologizm birlashib, kuchli badiiy ta’sir yaratadi. Bu yozuvchining xalqona obrazlardan samarali foydalanish mahoratini ko‘rsatadi.

6. Badiiy-estetik ahamiyati. Metafora va frazeologizmlar O‘tkir Hoshimovning yozuvchilik uslubini milliyashtiradi, qahramonlarning ruhiy dunyosini nozik aks ettiradi, asar tiliga o‘tkirlik, obrazlilik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi, o‘quvchini o‘zbek xalqining ruhiy olamiga olib kiradi.

Xulosa qilib shu aytish mumkinki, O‘tkir Hoshimovning metaforalar va frazeologizmlardan foydalanishdagi mahorati uning asarlariga chuqur semantik qatlam, milliy ruh va badiiy ta’sirchanlik beradi. Shu jihatdan yozuvchining ijodiy uslubi o‘zbek badiiy tilining eng yorqin namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

O‘tkir Hoshimovning asarlari o‘zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati va ruhiyatini chuqur aks ettirganligi sababli undagi so‘z va iboralar semantik boylik bilan ajralib turadi. Yozuvchi xalqona so‘zlarni, obrazli iboralarni va semantik jihatdan ko‘p qatlamli birliklarni mahorat bilan qo‘llaydi. Shu bois uning asarlarini tahlil qilishda so‘z va iboralarning lug‘aviy, majoziy va konnotativ ma’nolari alohida ahamiyatga ega.

1. Lug‘aviy va konnotativ ma’no. Yozuvchi tilida lug‘aviy ma’no bilan birga konnotativ (qo‘shimcha) ma’nolar keng qo‘llanadi. Masalan, “Ikki eshik orasi” romanida quyidagi jumlagga e’tibor qaratamiz: **“Hayot — ikki eshik orasidagi yo‘lovchi.”** Bu yerda “hayot” oddiy lug‘aviy ma’noda insonning yashash davrini bildirsa, “ikki eshik” iborasi ramziy ma’noda hayotning boshlanishi va tugashini anglatadi. Bu konnotativ ma’no roman g‘oyasini chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi.

2. Majoziy va poetik semantika

Hoshimov asarlaridagi ko‘plab iboralar poetik semantika bilan boyitilgan. Masalan: **“Dunyo g‘animat”** – bu ibora oddiy hayotiy tajribaning natijasi bo‘lsa-da, asarlarda u insoniy qadriyatlar va vaqtning qadrini anglatadigan poetik tushuncha sifatida ishlatiladi.

“Yurakning yoriqlari” – inson qalbida kechayotgan iztirob va ruhiy jarohatlar poetik obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday ifodalar o‘zbek xalqining ruhiy kechinmalarini, hayot falsafasini badiiy tilda ifodalash imkonini beradi.

3. Frazeologik birliklarning semantik o‘rni. Yozuvchi ijodida frazeologizmlar alohida o‘rin egallaydi. Ular asosan xalqona ruhni, milliy mentalitetni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi: **“Otning o‘limi egasiga azob”** – xalq maqoli asosida yaratilgan semantik birlik.

“Qarg‘aning tuxumiday qadrlı” – qadr-qimmat va noyoblikni ifodalaydi.

“Yurakni qon qilib” – qayg‘u, alamni kuchaytiruvchi obrazli ibora.

Frazeologizmlar asarning semantik qatlamini chuqurlashtiradi va matnning badiiyligini oshiradi.

4. Dialektizmlar va ularning semantik ahamiyati. Hoshimov ko‘plab qahramonlar nutqida dialekt so‘zlaridan foydalanadi. Bu yozuvchiga qahramon xarakterini yanada tabiiyroq ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan:

“Shakarpalak” – bolalarga beriladigan xalqona atama, samimiyat va mehrni ifodalaydi.

“Qo‘ra” – hovli yoki chorva saqlanadigan joy; bu so‘z qishloq hayotining semantik fonini beradi.

Dialektizmlar orqali yozuvchi asarning ijtimoiy-madaniy kontekstini boyitadi va o‘quvchini milliy muhitga olib kiradi.

5. Sinonimiya va antonimiya vositasida semantik boylik. Hoshimov matnida sinonimik qatorlardan foydalanish ham keng tarqalgan. Masalan:

“Iztirob”, “dard”, “alam”, “g‘am” – ruhiy kechinmalarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

“Mehr”, “shafqat”, “rahm-shafqat” – insoniy his-tuyg‘ularni chuqurlashtiradi.

Antonimik juftliklar esa dramatik vaziyatlarni kuchaytiradi:

“Yorug‘ kun – zulmatli kecha”



“Hayot – o’lim”

“Sevgi – nafrat”

Bular asarning falsafiy va semantik qatlamlarini yanada teranlashtiradi.

6. Ramziy obrazlarning semantik vazifasi. Hoshimov ijodida ramzlar asosiy o’rinlardan birini egallaydi:

“Ikki eshik” – hayot va o’lim oralig’idagi inson yo’li.

“Ko’hna chiroq” – oilaviy qadriyatlar, oila issiqligini bildiruvchi obraz.

“Yo’l” – hayot sinovlari va inson taqdirining ramzi.

Bu ramzlar yozuvchi ijodini chuqurroq tushunishga imkon beradi va asarlarning falsafiy mazmunini ochadi.

7. Semantik qatlamlarning milliy-madaniy xususiyatlari. O’tkir Hoshimovning asarlari milliy qadriyatlar va madaniyatga boy bo’lgani sababli, ularning semantik qatlamida o’zbek xalqining urf-odatlarini, diniy tasavvurlari va tarixiy tajribasi keng aks etadi. Masalan, “Dunyoning ishlari” qissasida oila, mahalla, qo’ni-qo’shnihilik qadriyatlar alohida semantik maydon sifatida ko’rinadi.

Shu tarzda yozuvchi asarlarida lug’aviy, konnotativ, majoziy va ramziy semantika uyg’unlashgan. Bu esa Hoshimov uslubining milliy ruhiyat bilan uzviy bog’langanligini isbotlaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon tilshunoslik sohasida katta o’zgarishlar ro’y berdi. Tildagi barcha birliklar xalqimizning til boyligi, javohirlari hisoblanadi. Hozirgi kun talablari bilan hayotimiz mezoniga e’tibor beradigan bo’lsak, xalq tili o’zining ko’zga ko’rinmas kuchga egaligini namoyon qilmoqda.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyati, grammatik tuslanishi va turlanishi o’rganilgan bir paytda, frazeologizmlarning badiiy matnda qo’llanilishi bilan bog’liq ba’zi masalalar o’z yechimini kutmoqda. Birinchi navbatda, frazeologizmlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, u badiiy asarning tiliga hamda so’zlashuv nutqiga jilo beradi, uni sayqallashtiruvchi ifodaviy tasvir vositalarini badiiy asarlar tilida namoyon etadi. Badiiy asar tilidagi individual – muallif frazeologizmlarini o’rganish, ularning ma’no qirralarini aniqlash, ularni frazeologik lug’atlarga kiritish kabi masalalar tilshunoslar e’tiborida bo’lmog’i zarur. Badiiy asarlar tilining o’zi murakkab jarayon bo’lganligi uchun, badiiy asarlarda yozuvchining individual yondashuvi mavjudligi sabab turli mualliflarga oid badiiy asarlarni emas, asarlarida hayotiylik nafasi ufurib turuvchi qalami o’tkir yozuvchi O’tkir Hoshimovning badiiy asarlarida keltirilgan frazeologizmlarni tadqiq va tahlil etishni rejalashtirdik. Chunki o’zbek adabiy tili va badiiy asar tili frazeologizmlarini so’z san’atkorlari tili va uslubi doirasida o’rganish salmoqli natijalarga olib keladi. Yangi nazariy fikrlarni hosil qilish va yangicha uslubdagi frazeologizmlarni yig’ishga erishish tufayli ham ish o’z dolzarbligini kasb etadi.

Badiiy matnlarda mavjud frazeologizmlarning qo’llanishiga doir maxsus tadqiqot yaratish o’zbek tilshunosligida muhim ahamiyatga egadir. O’Hoshimov asarlarida frazeologizmlarning qo’llanilishini o’rganish, tasniflash, semantik va tuzilishiga oid ko’rinishlarini aniqlash, ahamiyatini belgilash tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: badiiy matnda frazeologizmlarning o’rganilish darajasini aniqlash; badiiy asarlarda mazkur birlikning turlarini tahlil etish; O’Hoshimov asarlarida qo’llanilgan frazeologizmlarni to’plab, ularning leksik-semantik xususiyatini o’rganish; yozuvchining badiiy asarlarida mavjud frazeologizmlarning tuzilishiga ko’ra tasniflash; tadqiqotga tortilgan asarlarda o’zgarishga uchramagan va o’zgargan frazeologizmlarni ko’rsatish, hamda tuzilishiga ko’ra birikmaga teng va gapga teng frazeologizmlarni tadqiq etish kabilar o’z oldimizga belgilab qo’yilgan asosiy vazifalar hisoblanadi.

Frazeologik birliklar eng ko’p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda qo’llaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan o’rni muhim ahamiyatga egadir. Mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda quyidagi maqsadlarda foydalanishadi: Masalan: 1) *Qo’lini tushirdi-yu, ko’cha eshik oldida o’ziga qarab turgan Muqaddamni ko’rib xijolatdan yuzlari lovillab ketdi* (Хошимов Ў. Баҳор қайтмайди. –Тошкент: Фафур Ғулом, 1970. – 218 б.). 2) *Hozir hech kimni, hatto, onamni ko’rishga ko’zim yo’q edi* (Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1981. – 31 б.). Yuqorida keltirilgan asar parchalarida qo’llanilgan frazeologik birliklar birinchi gapda gapda uyat va qo’rquvni, ikkinchi gapda g’azabni kabi munosabatlarni ifodalab kelishga xizmat qilmoqda.

Ulug’ yozuvchi A.Qahhor singari O’Hoshimovning ham frazeologizmlardan foydalanishdagi o’ziga xos maktab yo’li bor desak mubolag’a bo’lmaydi. Masalan, Endi gapning po’skallasi shu: belimda belbog’im bor deganing ertalab hasharga kelaver gapidagi gapning po’skallasi (ya’ni xullas), belimda belbog’im bor deganlar (erkaklar) sodda, xalqona ifodaning namunasidir. Bunday xalqona ifodalar



yozuvchi asarlarida keng qo’llanilgan: shashti pasaydi, o’v, haloyiq, luqma tashladi, rasamad, eplamoq, apoq-chapoq, zig’irday amal, chaqchaymoq, chiyillamoq, boshpana, zakunchi, tajanglik. Bu kabi ko’plab oddiy xalq nutqida qo’llaniladigan so’zlar yozuvchi uchun ham xalqona soddalikni ta’minlashga, ham badiiylilikni ifodalashga xizmat qilgan vositalarga aylangan. Bu hol yozuvchining xalq tili imkoniyatlarini chuqur his etgan holda undan maqsadga mos tarzda foydalana olganligidan namunadir.

Oddiy so’zlashuv nutqi vositalari qahramonlar nutqini o’ziga xosligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri bo’lganidek, bu lug’aviy birliklar personajlarning xatti-harakatini, his-tuyg’ularini, xarakterini, uning qanday kishi ekanligini ochib berish vazifasini ham bajaradi. Masalan: Yomon ish bo’ldi! Qo’ymijoz Komil tabibning mishiqi bolasini sariq chaqaga olmayman (Xoшимов Ў. Икки катра икки беш. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 480 б.) gapidagi oddiy so’zlashuvga xos qo’ymijoz, mishiqi, sariq chaqa so’zlari, avvalo so’zlovchining kishiga bo’lgan munosabatini ifodalagan. Shu bilan birgalikda fikr olayotgan kishining qanday odam ekanligini izohlashda ham ushbu vositalardan foydalanilgan: – *Sening ham oyog’ingni to’rtta qilaylik, mundoq, nima balo yo mijozing sustmi?* (Xoшимов Ў. Икки катра икки беш. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 480 б.) gapidagi «oyog’ini to’rtta qilmoq» so’z birikmasi orqali esa «uyli-joyli qilmoq», «uylantirmoq» ma’nosining ifodalanishi oddiy so’zlashuv vositalarining nutqiy imkoniyatlari juda kengligini ko’rsatadi. O’tkir Hoshimov asarlaridan olingan quyidagi gaplarda ham oddiy so’zlashuvga xos lug’aviy vositalar qo’llanilib, turli uslubiy vazifalarni bajarganini, badiiy asar tilini jozibador, ta’sirchanligini ta’minlaganini kuzatish mumkin: - *Kecha anovi itvachchani yoqasidan bo’g’ganimda xirillab qoluvdi. Pildirab chiqmas ekansan-a! Eshigingni rais qoqqanini bilasan-da. Ie, xotini-ku! Tabib qay go’rda qoldiykin? Voy, qurug’ -ey, kelib –kelib senga uka bo’lib qoldimmi? Choying bilan qo’shmazor bo’l!* (Xoшимов Ў. Икки катра икки беш. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 480 б.)

O’Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Bahor qaytmaydi” va shu kabi asarlarida qo’llanilgan frazeologik birliklarni to’plab, o’rganganimizda o’zgarishga uchramagan va qayta ishlangan frazemalarni ajratib tahlil etdik. Quyida ulardan bir qanchasini tahlilga tortamiz:

1. *Pinakka ketmoq* ma’nosi: a) *uxlab qolmoq*; b) *o’ylanish holatida bo’lmoq* (xayolga cho’mmoq). Masalan: *Alimardon yaproqlarning pipirab uchishini tomosha qila – qila pinakka ketdi* (Xoшимов Ў. Баҳор қайтмайди. –Тошкент: Фафур Фулом, 1970. – 218 б.).

2. *Damini rostlamoq* Sinonimi: nafasini rostlamoq. Ma’nosi: to’xtab, nafas olmoq, tin olmoq, dam olmoq. Masalan: *Nihoyat, sekin-sekin damini rostladi, hovliga tikilgancha bir tekis, chuqur – chuqur nafas ola boshladi* (Xoшимов Ў. Баҳор қайтмайди. –Тошкент: Фафур Фулом, 1970. – 218 б.).

Yozuvchi, umuman frazeologik sinonimlardan keng va unumli foydalangan. Frazeologik sinonimlar orqali fikrning nozik ma’no qirralarini ochgan, rang-barang uslubiy bo’yoqlar orqali fikrni yorqin, butun nozikligi bilan ifodalab bergan. Natijada asar tilining ravon va jozibador, jonli va shirali chiqishiga erishgan: *Shu Afzalxon tushmagur Risolatxondan bo’lagiga ko’nmayapti. Bilmadim, zora taqdiri qo’shilgan bo’lsa* (Xoшимов Ў. Дунёнинг ишлари. – Тошкент: Фафур Фулом, 1981. – 336 б.).

Ushbu gapdagi taqdiri qo’shilgan, yulduzi yulduziga to’g’ri kelgan frazeologik sinonimlari bir fikrni rang-barang bo’yoqlarda ifodalab, nutqda so’z takrorining oldini olgan, fikriy jozibadorlik va ta’sirchanlikni ta’minlagan.

Frazeologik sinonimlar ko’pincha ma’no sinonimlari bo’ladi. Masalan, *nafasi ichiga tushib ketmoq, kapalagi uchib ketmoq, yuragi orqasiga tortib ketmoq, seskanib ketmoq* iboralari uchun umumiy mazmun “qo’rqmoq” bo’lib, ammo bu umumiy ma’noning gavdalanishi turlicha.

Seskanib ketmoq (Sirojiddin seskanib ketdi) va *kapalagi uchib ketmoq* iborasiga nisbatan *rangi uchib ketmoq* (... Valiyev ro’parasida turar, rangi uchib ketgan edi), *nafasi ichiga tushib ketmoq* (...tomoshabinlarning nafasi ichiga tushib ketgandi), *yuragi orqasiga tortib ketmoq* iboralarida ma’no kuchliroq.

O’tkir Hoshimov o’z asarlarida leksik-frazeologik sinonimlardan ham unumli foydalangan. Leksik-frazeologik sinonimlar badiiy asar tilini ravonlashtirish, shuningdek, talaffuzni qulaylashtirish maqsadida ishlatilgan. Leksik-frazeologik sinonimlarni tanlab ishlatish adiblardan katta mahorat talab qiladi. O’tkir Hoshimov asarlari tilini kuzatar ekanmiz, undagi bu lug’aviy birliklardan ham ustalik bilan foydalanilganini kuzatish mumkin.

Leksik-frazeologik sinonimlarda ibora o’z ma’no qirrasiga ko’ra, shuningdek, stilistik bo’yog’iga ko’ra o’z sinonimi bo’lgan so’zdan keskin farqlanib turadi. Nimanidir frazeologik birlik bilan anglatish, odatda so’z bilan anglatishga qaraganda obrazli, o’tkir, ta’sirchan bo’ladi. Yozuvchi xuddi mana shu tomoniga e’tibor berib, qaysar so’zining sinonimi bo’lgan “o’z kindigini o’zi kesgan xilidan” iborasini



qo‘llab gapdagi ma’noning kuchliroq, ta’sirchan chiqishiga erishgan: Cholim ham o‘z kindigini o‘zi kesganlar xilidan edi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar va ular bilan bog‘liq hodisalar, ularning ma’noviy va vazifaviy xususiyatlari murakkab, sermunoza bo‘lib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Ular bir tomondan til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan har bir xalqning ko‘p asrlik turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlar va an’analarning badiiy asarlarda aks ettiruvchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda muayyan holatni, voqelikni obrazli, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlovchi vosita ham hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Жуманиязов М. «Ўзбек адабиётида лингвопрагматик таҳлил». – Нукус: Қарақалпоқстан, 2019.
2. Hoshimov O. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2014. – 432 b.
3. Hoshimov O. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Sharq, 2015. – 320 b.
4. Hoshimov O. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: Sharq, 2014. – 288 b.
5. Hoshimov O. Qalbingga quloq sol. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013. – 256 b.

DAVLAT XIZMATLARI SAMARADORLIGI – IJTIMOY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Abdimitalov Davronbek Abdug‘ani o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Anotatsiya: Tezis davlat xizmatlari samaradorligi va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri masalalarini kompleks tahlil qiladi. Tadqiqot jarayonida davlat organlarining ichki va tashqi samaradorligini oshirish mexanizmlari, fuqarolarning davlat xizmatlariga qoniqish darajasi, shuningdek, davlat xizmatlarining sifatini baholash tizimlari o‘rganildi. Tezis shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligi bilan ijtimoiy farovonlik, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolik mas’uliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari davlat boshqaruvida modernizatsiya jarayonlarini optimallashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va fuqarolar bilan o‘zaro ishonchni mustahkamlash bo‘yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Davlat xizmatlari, samaradorlik, ijtimoiy taraqqiyot, fuqarolik mas’uliyati, boshqaruv tizimi, davlat organlari, sifat va monitoring, strategik rivojlanish.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Абдимиталов Давронбек Абдугани оглы
Научный сотрудник Наманганского государственного университета

Аннотация: В диссертации представлен комплексный анализ вопросов эффективности государственных услуг и их влияния на общественное развитие. В ходе исследования были изучены механизмы повышения внутренней и внешней эффективности государственных органов, уровня удовлетворенности граждан государственными услугами, а также системы оценки качества государственных услуг. В диссертации также показана взаимосвязь эффективности государственных услуг с социальным благополучием, экономической стабильностью и гражданской ответственностью. Результаты исследования направлены на разработку стратегических рекомендаций по оптимизации процессов модернизации в сфере государственного управления, эффективному распределению ресурсов и укреплению взаимного доверия с гражданами.

Ключевые слова: Государственные услуги, эффективность, социальное развитие, гражданская ответственность, система управления, государственные органы, качество и мониторинг, стратегическое развитие.

PUBLIC SERVICES EFFICIENCY – AN IMPORTANT FACTOR OF SOCIAL DEVELOPMENT